



PRACTICAL SIGNIFICANCE OF ANTITRUST LEGISLATION FOR BUSINESS ENTITIES

Djadigerov Timur Maxsetovich

Karakalpak State University, Faculty of Law, Department of Civil
and Business Law, Trainee Lecturer

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247739>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

Competition, dominant position, unfair competition, market entry, monopoly, legislation, business entity, compliance, legal security, economic reforms.

ABSTRACT

This article highlights the practical significance of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Competition," adopted in 2023, for business entities. The research analyzes modern issues such as the concept of dominant position, forms of unfair competition, and barriers to market entry. A particular focus is given to the introduction of the antitrust compliance system as a mandatory legal institution under the new law. This system ensures legal security and stability for large business entities and state-owned enterprises. As a result, mechanisms for compliance with legislation and support of economic reforms are reinforced.

BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN MONOPOLIYAGA QARSHI QONUNCHILIKNING AMALIY AHAMIYATI

Djadigerov Timur Maxsetovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti Fuqarolik va biznes huquqi kafedrası stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247739>

ARTICLE INFO

Received: 14th September 2025

Accepted: 29th September 2025

Online: 30th September 2025

KEYWORDS

Raqobat, ustun mavqe, insofsiz raqobat, bozorga kirish, monopoliya, qonunchilik, biznes subyekti, komplaens, huquqiy xavfsizlik, iqtisodiy islohotlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan «Raqobat to'g'risida»gi Qonunining biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda ustun mavqe tushunchasi, insofsiz raqobat shakllari hamda bozorga kirishga to'sqinlik qilish kabi zamonaviy muammolar tahlil qilinadi. Yangi qonun bilan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi majburiy huquqiy institut sifatida joriy etilgani alohida ahamiyatga ega. Bu tizim yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat ishtirokidagi korxonalar uchun huquqiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Natijada, qonunchilikka rioya qilish hamda iqtisodiy



*islohotlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari
mustahkamlanadi.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosati so'nggi yillarda bozor mexanizmlarini rivojlantirish va davlat ishtirokini izchil kamaytirish yo'nalishida jadal islohotlarni amalga oshirmoqda. Iqtisodiyotni liberallashtirish va denatsionalizatsiya jarayonlari davom etayotgan bir sharoitda, raqobat muhitini himoya qilish, barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish hamda iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustahkam huquqiy asos talab etiladi. Ushbu maqsadlarga erishish O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonunining yangi tahriri (O'RQ-850-son, 03.07.2023-y.) qabul qilinishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikning biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyati nafaqat huquqbuzarliklarni oldini olishda, balki korporativ boshqaruvning strategik qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yangi qonun davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi va iqtisodiy faoliyatning raqobat talablariga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tahlilning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, ayniqsa 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan «Raqobat to'g'risida»gi Qonunga tayanadi. Shuningdek, raqobatni tartibga soluvchi Prezident Farmonlari (masalan, PF-108-son va PF-198-son) va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, jumladan, ish qo'zg'atish va ko'rib chiqish tartibini belgilovchi hujjatlar asos qilib olindi. Ushbu maqolada mazkur mavzuni tahlil qilishda legal-normativ tahlil metodologiyasi qo'llanildi. Bunda qonuniy ta'riflar va majburiy talablarning amaliy interpretatsiyasi hamda biznes subyektlarining risklarini boshqarish nuqtai nazaridan baholashga asosiy e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, qiyosiy-strukturaviy tahlil orqali eski reaktiv nazorat usullaridan yangi proaktiv mexanizmlar (komplaens) tomon o'tish jarayoni o'rganildi.

Muhokama. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning markaziy elementlaridan biri ustun mavqe tushunchasidir. «Raqobat to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, ustun mavqe xo'jalik yurituvchi subyektga tovar yoki moliya bozorida raqobat sharoitlariga bir tomonlama ta'sir o'tkazish, bozorga boshqa subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini cheklash imkoniyatini beradigan holatdir.¹

Ustun mavqeni amaliy e'tirof etish uchun qonunda aniq mezonlar belgilangan. Xususan, agar xo'jalik yurituvchi subyektning bozordagi ulushi 40 foizni va undan ortiqni tashkil etsa, yoki bozorda raqobatchilar mavjud bo'lmasa, yoxud subyektga qonunchilik asosida mutlaq huquq berilgan bo'lsa (masalan, tabiiy monopoliya subyektlari), uning holati ustun mavqe deb e'tirof etilishi mumkin. Vakolatli davlat organi (Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi) ushbu holat e'tirof

¹ Raqobat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6518381#-6519627>.



etilgan kundan e'tiboran uch kun ichida subyektga xabarnoma yuborishi shart, bu esa korporativ huquqiy rejalashtirish uchun muhim protsessual aniqlikni ta'minlaydi.²

Amaliyotda kichik va o'rta biznesni ortiqcha tartibga solishdan himoya qilish mexanizmi mavjud. Agar xo'jalik yurituvchi subyektning (tabiiy monopoliya subyektlari va narxi davlat tomonidan tartibga solinadigan subyektlar bundan mustasno) oxirgi kalendar yildagi tushumi BHMning o'ttiz ming baravaridan kam bo'lsa, uning bozordagi holati ustun mavqe deb e'tirof etilmaydi. Bu chegara davlatning nazorat resurslarini iqtisodiy jihatdan eng muhim bo'lgan o'yinchilarga yo'naltirishga xizmat qiladi, shu bilan birga kichik biznes subyektlariga tez rivojlanish imkoniyatini beradi.

Insosiz raqobat harakatlari ham monopoliyaga qarshi qonunchilikning doimiy va keng tarqalgan amaliy xatarlaridan biridir. Qonunchilikka ko'ra, insosiz raqobat — bu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlaridir.³

Insosiz raqobat shakllari juda xilma-xildir va amaliyotda ular intellektual mulkni himoya qilish, iste'molchilar huquqlari va reklama kabi qonunchilikning boshqa sohalaridagi huquqbuzarliklar bilan chambarchas bog'lanadi.

Yangi qonunchilik nuqtai nazaridan, bozorga kirishga to'sqinlik qilish ham insosiz raqobat harakati sifatida belgilangan.⁴ Bunday harakat, ustunlikka ega bo'lgan yirik korxonalarining o'z bozor kuchidan (Market Power) foydalanib, yangi tadbirkorlarning kirishini jismonan cheklash, narxlarni sun'iy ravishda yuqori ushlab turish yoki iste'molchilar uchun mahsulot sifatini pasaytirish kabi yo'llar bilan raqobatni buzishini anglatadi. Qonunchilikning bu jihati shuni ko'rsatadiki, davlat hozirgi kundagi xatti-harakatlarni tartibga solishdan tashqari, raqobat strukturasi ham himoya qilishga qaratilgan.

Natijalar. Yangi Qonunning eng muhim amaliy natijasi monopoliyaga qarshi komplaens (Compliance) tushunchasining kiritilishi va uni ba'zi subyektlar uchun majburiy etib belgilanishidir. Komplaens — bu faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo'yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimidan iborat.

Komplaens tizimini majburiy tartibda joriy etish quyidagi subyektlar uchun muhim strategik majburiyatga aylandi:

- Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

² Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi rasmiy sayti. <https://raqobat.gov.uz/uz/savol-ustun-mavqe-nima/>

³ Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi. Insosiz raqobat va intellektual mulk huquqlarining buzilishi. 2022. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=53233>

⁴ Tadjibayeva, M. R. (2021, December 14). *O'zbekistonda insosiz raqobat shakllaridan biri sifatida bozorga kirishga to'sqinlik qilish* [Conference presentation]. In *Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari*. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization_in_justice/article/download/2731/2824



- Oxirgi uch yilda tushumining o'rtacha yillik miqdori BHMning 100 ming baravaridan oshadigan hamda ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar;
- Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar.

Bu majburiyat biznes uchun dastlabki xarajat bo'lishiga qaramay, u korxonada faoliyatida katta amaliy afzalliklarni ta'minlaydi. Komplaens tizimining joriy etilishi ichki nazoratni kuchaytiradi, yirik jarimalar va ishchanlik obro'siga putur yetkazish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar uchun esa bu tizim nafaqat raqobat talablariga rioya qilishni, balki keng qamrovli ma'muriy islohotlar doirasida shaffoflikni oshirish va yashirin korrupsiya xatarlarini kamaytirishni ham anglatadi. Shunday qilib, komplaens huquqiy majburiyatdan ichki risk boshqaruvi va barqarorlik mexanizmiga aylanadi.

Raqobatni tartibga solish va nazorat qilish Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u monopoliyaga qarshi organ sifatida faoliyat yuritadi. Davlatning iqtisodiyotni boshqarish usullari narxlarini tartibga solishdan (bu investitsiyalarni jalb qilmaydi) institutsional nazoratga o'tayotgani kuzatilmoqda.

Qonunchilik buzilganligi to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ko'rib chiqish, ko'rsatmalar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish tartibi Hukumat qarorlari bilan aniq belgilab qo'yilgan. Bu tartib-qoidalar oshkoraligi biznes subyektlariga huquqiy munosabatlarda oldindan bashorat qilib bo'ladigan muhitni ta'minlaydi, bu esa investitsiyalar va innovatsiyalarning kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyati 2023-yilgi yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Qonun, ustun mavqeni belgilash mezonlarini zamonaviylashtirish, raqamli bozorlar kabi murakkab sohalarga e'tibor qaratish hamda insofsiz raqobatning yangi shakllarini (masalan, bozorga kirishga to'sqinlik qilish) aniqlash orqali, raqobat muhitini chuqur himoya qilishga qaratilgan.

Eng muhim amaliy natija bu monopoliyaga qarshi komplaens tizimining majburiy joriy etilishi bo'lib, u yirik xo'jalik subyektlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar uchun qonunchilikka rioya qilishni ta'minlashning markaziy strategik elementiga aylandi. Bu tizim huquqiy xatarlarni ichki risk boshqaruvi orqali minimallashtirishga xizmat qiladi.

Biznes subyektlari, ayniqsa ustun mavqega ega bo'lganlar yoki qonunda belgilangan mezonlarga muvofiq komplaens majburiyati yuklangan yuridik shaxslar, monopoliyaga qarshi komplaens tizimini o'z korporativ boshqaruvining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqishlari shart. Ushbu huquqiy talablarga rioya etish O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar jarayonida barqaror va huquqiy xavfsiz biznes yuritishning muhim garovidir. Raqobat huquqini buzganlik uchun belgilangan jarimalarning oldini olish va iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlash nuqtai nazaridan, proaktiv komplaens yondashuvi biznes strategiyasining asosiy ustunlaridan biri bo'lishi zarur.



References:

1. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-850-son. - 03.07.2023 yil. <https://lex.uz/docs/-6518381#-6519627>
2. «Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Prezident farmoni. PF-198-son - 21.11.2023 yil. <https://lex.uz/docs/-6669850>
3. Tadjibayeva, M. R. (2021, December 14). *O'zbekistonda insofsiz raqobat shakllaridan biri sifatida bozorga kirishga to'sqinlik qilish* [Conference presentation]. In *Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari*. Huquqiy Siyosat Tadqiqot Instituti. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization_in_justice/article/download/2731/2824
4. Raqobat huquqi: Darslik//X.T Azizov, O.Oqyulov, S.Joldasova - TDYU nashriyoti, 2018 y. <https://library-tsul.uz/raqobat-huquqi-2018-2/>